

## MARKAZIY OSIYO ZAMONAVIY SAN'ATIDA "STREET ART"

Muhamedova E'zoza

Kamoliddin Behzod nomidagi MRDI talabasi

### ANNOTATSIYA

Bugungi kun san'ati va ijtimoiya hayotida street art ommalashib bormoqda. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida bu san'at doirasida ijod qilayotgan san'atkorlar haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Street art, graffiti, ko'cha san'ati muhiti, mural, street art ob'ekti, shahar makoni, shahar uslubi.

### АННОТАЦИЯ

Стрит-арт становится популярным в современном искусстве и общественной жизни. В данной статье рассказывается о художниках, работающих в рамках этого искусства в странах Средней Азии.

**Ключевые слова:** Стрит-арт, граффити, стрит-арт среда, мурал, стрит-арт-объект, городское пространство, городской стиль.

### ABSTRACT

Street art is becoming popular in today's art and social life. This article talks about the artists who work in the framework of this art in the countries of Central Asia.

**Key words:** Street art, graffiti, street art environment, mural, street art object, urban space, urban style.

Zamonaviy shahar hayoti va uning qiyofasi bevosita madaniyatning shakllanishi bilan bog'liq. Shahar muhiti - bu o'tmish bilan bog'liqlik va hozirgi kunning prognozi bo'lib, u insonning kundalik dunyosining umumiylashtirishini tasvirini tashkil qiladi.

Qulay shahar muhitini shakllantirish bir qator omillarni o'z ichiga oladi: umumiy obodonlashtirish, yashil hududlar va jamoat joylarining mavjudligi, me'moriy ansambl, infratuzilma va boshqalar. Ularning rivojlanishi shahar hokimiyatining ham, jamoat tashkilotlarining ham yordamiga muhtoj. Aholining ta'lifdarajasi fuqarolarning shahar tovarlarini iste'mol qilish xususiyatiga, xususiy tashabbuslarning rivojlanishiga va shahar maydoni orqali shaxslarning o'zini o'zi rivojlantirish usullariga ta'sir qiladi. Ikkinchisiga misol qilib, inson va shahar o'rtasidagi

munosabatlarda vositachilardan biri bo‘lib, ularning ijodiy jihatini ro‘yobga chiqaradigan street art misol bo‘la oladi.

Street art yoki ko‘cha san’ati - bu zamonaviy tasviriyo san’at yo‘nalishi bo‘lib, uning ajralib turadigan xususiyati shahar muhiti bilan uzlusiz bog‘liqlikdir. Rassom uchun ko‘cha asarlarining asosiy afzalliklari - bu katta auditoriyani qamrab olish, asarning tomoshabin uchun mavjudligi, internetda asarni tarqatishda cheklovlarining yo‘qligidan iborat. Chunki bu omillar rassom uchun tez o‘sib boradigan mashhurlikni ta’minlaydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, rasmiy ravishda, shahar maydoni doirasida ko‘cha san’ati ikki turga bo‘linishi mumkin: sanktsiyalangan, ya’ni shahar hokimiysi tomonidan tasdiqlangan (ko‘pincha bu holatda ularning tashabbusi bilan) va sanktsiyasiz, ya’ni rasmiy ruxsatsiz chizilgan. Ko‘pgina mamlakatlarda ruxsat etilmagan ko‘cha san’ati qonunchilik darajasida ta’qib qilinadi: rassomlarga jarimalar yoziladi va ba’zan hibsga ham olinadi. Ish bo‘yab tashlanadi yoki o‘chiriladi. Biroq, so‘nggi paytlarda hukumat tuzilmalari ko‘cha rassomlari va ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlay boshladilar: ko‘cha san’ati muzeylarini ochish, ko‘cha san’ati festivallarini tashkil etish va ish joylarini taqdim etish orqali. Bu tendentsiya birinchi navbatda Yevropada, va keyinchalik butun dunyoda, jumladan, Rossiya va Markaziy Osiyoda ham kuzatildi.

Afg‘oniston xududi qadimdan Markaziy Osiyodagi muhim o‘rin tutgan. Temuriylar davridan afg‘on xududida butunjahonda tengi yo‘q san’at maktablari shakillangan edi. Ammo Afg‘oniston 1978 yildan beri deyarli doimiy mojaro holatida qolmoqda. Shunday siyosiy notinchlik mamlakatdagi ijodkorlarni ilhomtirmoqda. Hukumatning san’atga bo‘lgan qarshiliklariga qaramay Qobul shahri graffiti larga to‘lib bormoqda. Shamsiya Hassani va ArtLords street artistlar guruhi Qobul shahrini graffiti markaziga aylantirishmoqda. ArtLords guruhi so‘nggi yetti yil mobaynida shahar ko‘chalariga 220 dan ortiq asarlar chizishdi. Ular ijodining asosiy mavzusi gender tengligi va bolalar huquqlarning oyoqosti bo‘layotganidir. Shamsiya Hassani ayol kishi bo‘lganligi tufayli unga nisbatan qarshiliklar va taziyqlar ikki barobar. Lekin u shunga qaramay faol street artistlardan. U asarlarida ayollarni tasvirlaydi. Uning shaxsiy ifoda usuli bor. U ayollarni ko‘zları yuzlarini chizmaydi, uning asarlari oddiy chiziqlar orqali yaratiladi. Erkaklar hukmronlik qiladigan afg‘on jamiyatidagi ayol-qizlar Hassani asarlarining asosiy mazmuni.

Qozog‘iston Respublikasi Markaziy Osiyodagi san’at eng yaxshi rivojlangan hudud hisoblanadi. Shu jumladan, street art ham Qozoqiston hududida juda keng

tarqalgan. Mamlakatda street artga san'at sifatida 2010- yillardan boshlab qarala boshlandi.

Pasha Kas, Erjan Tanayev va Galymjan Balsari kabi street artistlar Qozog‘iston ko‘chalarida davlatdagи ijtimoiy muammolarga nisbatan o‘z fikrlarini qoldirish bilan mashxurlar. Ayniqsa, Pasha Kas nafaqat Qozog‘iston balki Rossiya va butun dunyoda ham o‘z graffitilarini yaratgan. Va shu bois u butun dunyoda o‘z muxlislariga ega. U yuzini niqob ostiga yashirmagan kam sonli graffitistlardan biridir. Uning asarlarini asosiy mavzusi jamiyatning befarqligi, korrupsiya, atrof muhit va jamiyat muammolaridir.

Erjan Tanaev mamlakatda street artni rivojlantirgan birinchi rassom hisoblanadi. Uning asarlarida tarixiy shaxslar, notanish chexralar va umuman mavxum tasvirlar ko‘p uchraydi.

Basicolors.graffiti guruxi va «DOXA» art-group bugungi kunda Qиргизистонда aktiv shakilda faoliyat yuritayotgan street art guruxlardan hisoblanadi.

DOXA guruxi asosan ijtimoiy muammolar mavzusida ijod qilishadi.

Basicolors graffiti guruxi asosan ekologiyaga oid muammolarga e’tibor qaratadi.

O‘zbekistonda ham bugungi kunda street art ommalashib bormoqda. Pandemiya davrida Inkuzart taxallusi ostida ijodini boshlagan rassom Toshkent aholisini street artlarga o‘rgatdi. Avvaliga hech kim payqamagan tasvirlar to‘g‘risida hozirda soatlab gapirilmoqda. Inkuzart street artni boshlab bergandan so‘ng mamlakatda Fearless harakati va Vaydot guruhi kabi street artistlar o‘z ishlarini taqdim etishni boshladilar. Ammo mamlakatning oddiy aholisi uchun street art bu Inkuzart bo‘lib kelmoqda. U mamlakatdagи ijtimoiy muammolarga hozirlik bilan javob qayataradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki so‘nggi paytlarda butun dunyoda shu jumladan Markaziy Osiyoda street art qulay shahar muhitini shakllantirishga hissa qo‘shmoqda. Street artistlar va ko‘cha san’ati hamjamiyatlari davlat bilan o‘zaro aloqada bo‘lish yo‘llarini izlamoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- Поносов И. Искусство и город. Граффити, уличное искусство, активизм. Москва, 2016. 208 с.
- Baldini, Andrea Lorenzo. “What Is Street Art?”. Estetika: The European Journal of Aesthetics 59, no. 1 (2022)

**Internet resurslar:**

3. Серкова Н. «Стрит-арт»: движение без сопротивления. URL:  
<http://partizaning.org/?p=9919>
4. Крылов С. Н. К вопросу формирования стрит-арта как направления в искусстве. URL: <https://sibac.info/author/krylov-sergey-nikolaevich>
5. 9 стрит-арт-художников из Центральной Азии. URL:  
<https://weproject.media/articles/detail/9-strit-art-khudozhnikov-iz-tsentralnoy-azii/?amp=y>
6. Afghanistan's First Female Street Artist Brings Hijabs And Feminism To City Walls. URL: [https://www.huffpost.com/entry/afghanistans-first-female-street-artist\\_n\\_56c26fd5e4b0b40245c79f3c](https://www.huffpost.com/entry/afghanistans-first-female-street-artist_n_56c26fd5e4b0b40245c79f3c)
7. Street art- san'at yoki vandalizm?  
URL:<https://www.gazeta.uz/oz/2021/10/14/street-art/>